

O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA AMALGA OSHIRILGAN TARJIMALAR XUSUSIDA

Kamola Aripova Yusupova

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)

90 981-46-15

e-mail: kamolakind@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyoti durdonalarining ingliz tiliga tarjima qilinish tarixi va bugungi holati yoritilgan. Muallif Alisher Navoiy asarlaridan boshlab, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek va G‘afur G‘ulom kabi adiblarning asarlari ingliz tiliga qay darajada va kimlar tomonidan o‘girilganini tahlil qiladi. Ayniqsa, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanining Kristofer Fort tomonidan amalga oshirilgan bevosita tarjimasi va uning ahamiyati alohida e’tirof etilgan. Maqolada badiiy tarjimada milliy ruhni saqlash va tarjimonlar hamkorligi masalalari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiyoti, badiiy tarjima, ingliz tili, Alisher Navoiy, Cho‘lpon, “Kecha va Kunduz”, bevosita tarjima, Kristofer Fort, antologiya, milliy ma’naviyat.

О ПЕРЕВОДАХ, ВЫПОЛНЕННЫХ С УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКИЙ

Аннотация: В статье рассматривается история и современное состояние перевода шедевров узбекской литературы на английский язык. Автор анализирует процесс перевода произведений Алишера Навои, Абдуллы Кадыри, Чулпана, Ойбека и Гафура Гуляма, освещая роль местных и зарубежных специалистов в этом процессе. Особое внимание уделяется прямому переводу романа Чулпана «Ночь и день», выполненному американским ученым Кристофером Фортм. В статье также обсуждаются вопросы сохранения художественно-стилистических особенностей и национального колорита в процессе англоязычного перевода.

Ключевые слова: узбекская литература, художественный перевод, английский язык, Алишер Навои, Чулпан, «Ночь и день», прямой перевод, Кристофер Форт, антология, национальная духовность.

CONCERNING THE TRANSLATIONS CARRIED OUT FROM UZBEK INTO ENGLISH

Abstract: *The article explores the history and current state of the translation of Uzbek literary masterpieces into English. The author analyzes the extent and methods of translating works by Alisher Navoi, Abdulla Qodiriy, Cholpon, Oybek, and Gafur Gulyam, highlighting the contributions of both local and foreign translators. Special emphasis is placed on the direct translation of Cholpon's novel "Night and Day" by American scholar Christopher Fort. The paper examines the challenges of preserving artistic and stylistic nuances, as well as the national spirit, in the process of literary translation.*

Keywords: *Uzbek literature, literary translation, English language, Alisher Navoi, Cholpon, "Night and Day", direct translation, Christopher Fort, anthology, national spirituality.*

Bugungi kunga qadar o'zbek adabiyotining nodir namunalari ko'plab chet tillariga tarjima qilinib, o'zga tilli kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Bu asarlarning jahon adabiyoti manbalar xazinasini boyitganligi, uning rivojiga hissa qo'shganligi aniqki, turkshunoslar bu haqida o'z ilmiy ishlarida ko'p bor ma'lumot berib, bu tarjimalarning badiiy salmog'ini e'tirof etishgan. Milliy adabiyotimizning sara namunalarini xorijlik kitobxonlarga ular tushunadigan tilda yetkazib berish, ularni estetik zavqdan bahramand etish uchun amalga oshirilgan muhim ishlardan biri O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2010 yil 26 fevraldagi qarorida o'z aksini topgan. Qarorda Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondi tashkil etilishi belgilangan bo'lib, uning davomida uyushmaga maxsus topshiriq ham yuklatilib, uning asosiy mazmuni "...xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz munosib namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilishni hamda internetda keng targ'ib etish"dan iborat edi¹.

Alisher Navoiy ijodi badiiy adabiyotimizda qanchalar salmoqli o'ringa ega ekanligi ma'lum. O'zbek tilidan chet tiliga badiiy tarjimalarning dastlabki namunalari ham aynan Navoiy bobomiz asarlaridan boshlangan. 2003-yilda buyuk ijodkorning "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga tarjimasini tayyorlashda o'zbek olimlaridan Nosir Qambarov, T. Muxammadxo'jaevlar hamda kanadalik navoiyshunos ingliz olimi Garri Dikning xizmatlari katta bo'ldi. Alisher Navoiyning g'azal va ruboiylari,

¹ hisobot.ijod.uz>login/download/1292_uz

hikmatlari, shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonidan parchalarni o‘z ichiga oluvchi “O‘zbekiston gapiradi” nomli inglizcha to‘plam tayyorlangan bo‘lib, u 1961 yilda Toshkent shahrida nashr etilgan². Bu to‘plam, albatta, o‘zbek adabiyotini jahonga tanitish, jumladan, mumtoz adabiyotimizning yetuk namunalarini jahon adabiyotiga olib kirish yo‘lidagi ilk qadamlardan biri edi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish borasida muhim izlanishlar olib borayotgan olim, kanadalik tarjimon, adabiyotshunos Garri Dik hamda o‘zbek mutaxassisarlari o‘rtasidagi hamkorlik ham alohida e‘tiborga loyiq, deb o‘ylaymiz.

1958-yilda Moskvada o‘zbek milliy she‘riyati namunalarining ingliz tiliga tarjimalarini o‘z ichiga olgan birinchi o‘zbek she‘riy antologiyasi tuzildi va “Uzbek Poetry”(“O‘zbek she‘riyati”) nomi ostida nashr etildi. Bizningcha, bu antologiya chiqarilishi o‘zbek tilida she‘riy tarjima faoliyati boshlanishi uchun ilk qadam bo‘lib xizmat qildi. O‘zbek adabiyotiga oid ko‘p asrlik she‘rlarni o‘zida jamlagan ushbu antologiyadan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda “Xazoyin ul-maoniy” dostonlariga oid kichik parchalar, shuningdek, shoirning uch dona g‘azali va hikmatlari ham o‘rin olgan bo‘lib, qolgan qismlarda, asosan, zamonaviy o‘zbek she‘riyatiga oid mashhur she‘rlarni uchratish mumkin. Bu she‘rlarni ingliz tiliga tarjima qilishda, asosan, V.Iyevleva, D.Rotenberg, O.Moiseyenko va boshqa tarjimonlar qatnashgan³. Ushbu tarjima ishlarida nafaqat o‘zbek tarjimonlari, balki boshqa millat vakillari, xususan, ingliz mutaxassislarining ham faol ishtirok etganligi o‘zbek adabiyotining dunyo kitobxonlariga taqdim etilishiga qanchalik katta e‘tibor qaratilayotganligining dalili deb o‘ylaymiz.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek adabiyoti xorijiy davlatlarda ham o‘zga tilli kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi, ijodkor va yozuvchilarga nisbatan hurmat bajo keltiriladi. So‘nggi bir necha yillar tarixiga nazar tashlasak, Oybekning “Navoiy” romani, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani I. To‘xtasinov, U. Yo‘ldoshev, O. Mo‘minov kabi bir qator tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga o‘girilib, nashr etildi⁴.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namunalarini xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga o‘girish jarayoni oson kechmagani aniq. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ingliz tiliga tarjima qilishda I. To‘xtasinov boshchiligidagi bir guruh tarjimonlar uzoq muddat davomida mehnat qildi. Tarjimani nashrga tayyorlash ishlarida xorijlik tarjimonlar, muharrirlar bilan hamkorlik qilindi. Romanning tarjima nusxasi matniga muharrirlik qilish uchun chet ellik

² Kambarov N. Mukhamadkhujaev T. – Tashkent, 2003. – B.166.

³hisobot.ijod.uz>login/download/1292_uz

⁴<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzbek-tilidan-ingliz-tiliga-tarzhimal/>

mutaxassislardan amerikalik olim Kristin Smart taklif etildi.

Biroq ijodiy jamoa bu bilan to'xtab qolgani yo'q. I. To'xtasinov boshchiligidagi tarjimonlar guruhi 2012-yildan 2014-yilgacha bo'lgan qisqagina muddat ichida o'zbek adabiyoti durdonalaridan bo'lmish 18 ta asarni ingliz tiliga bevosita usulda tarjima qildilar. Ularning orasida Abdulla Qodiriyning yana bir mashhur romani "Mehrobdan chayon" ("Scorpion from Altar"), Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" ("Starry Nights"), O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" ("Affairs of Life"), Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" ("The Treasure of Ulugbek), Tohir Malikning "Shaytanat" ("Devildom"), Cho'lponning "Kecha va Kunduz" ("Night and Day"), G'afur G'ulomning "Shum bola" ("A Naughty Boy") qissasi kabi mashhur asarlar bor edi. Bu ishlarni o'zbek hamda ingliz tillaridagi badiiy asarlarni bevosita tarjima qilish ishlariga debocha bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

O'zbek romanchiligidagi eng muhim asarlardan biri Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romani bo'lib, u ham "O'tkan kunlar" romani singari dunyoning ko'plab tillariga o'girilgan va butun dunyo bo'ylab xorijiy tilda so'zlashuvchi kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. Belgiyalik mashhur olim, osiyoshunos tadqiqotchi S. Dyuduanon 2009-yilda bevosita tarjima usulidan foydalanib, "Kecha va Kunduz" asarini fransuz tiliga o'girdi. Asarning "Kunduz" qismi yo'q ekani sababli, u tarjima asarni "Nuit" ("Tun") nomi bilan nashr ettirdi.⁵ Ushbu asar tarjimasini o'zbek va fransuz asarlari tarjimasini yangi bir bosqichga olib chiqdi, deb aytishimiz mumkin. Negaki, bunga qadar o'zbek yoki fransuz adiblarining nodir asarlarini tarjima qilishda doimo vositachi til ishtirok etar edi. "Kecha va Kunduz" romanining asliyat tilidan fransuzchaga o'girilishi esa bu ikki til o'rtasidagi dastlabki bevosita tarjimalardan biri bo'ldi. Tarjimon haqida to'xtaladigan bo'lsak, S. Dyuduanon 1962-yilda Belgiyada tug'ilgan bo'lib, hozirda Fransiyaning Sorbonna universitetida faoliyat yuritmoqda. U uzoq muddat davomida Osiyo xalqlari mentaliteti, madaniyati, yaqin o'tmishini tadqiq etib, o'z muallifligi ostida bir qancha ilmiy ishlarni chop ettirdi. Uning "Kecha va Kunduz" romanini fransuzchaga qilgan tarjimasini bu romanni bevosita usulda tarjima qilmoqchi bo'lgan boshqa olimlar uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi, desak xato bo'lmaydi.

O'zbek tilida yozilgan eng sara badiiy asarlarning ingliz tiliga tarjima qilingani haqida yuqorida aytib o'tdik. Bu o'rinda Abdulhamid Cho'lponning o'zbek xalqining yaqin tarixi, milliy-madaniy qiyofasi, urf-odat va qadriyatlari, o'zbek tilining badiiy tasvir kuchini o'zida yorqin aks ettirgan "Kecha va Kunduz" romaniga alohida to'xtalib o'tish joiz. O'zbek romanchiligining debochasi hisoblanmish mashhur "O'tkan kunlar" romani darajasida, deya ta'riflanishi ham bu asarning qanchalar

⁵ <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/rahima-shirinova-kecha-va-kunduz-romani-fransuz-tilida>

yuksak badiiyatni o'zida mujassam etganligiga dalildir.

“Kecha va Kunduz” asarining ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinishi amerikalik olim Kristofer Fort nomi bilan bog'liq. K. Fort haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, yosh olim hozirda AQShning Detroyt shahrida istiqomat qiladi. U 1988 yilda AQShning Minnesota shtatida tug'ilgan bo'lib, 2010 yilda Michigan universitetining rus tili va siyosatshunoslik yo'nalishini bitirgan. Yosh bo'lishiga qaramasdan, bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirishga ulgurgan olim O'zbekistonga ham ko'p bora kelgan, bir muddat bu yerda yashab, o'zbek tilini o'rgangan. K. Fort 2015 yilda Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanini ingliz tiliga tarjima qilishga kirishdi va sezilarli darajada qisqa muddat ichida asar tarjimasini tugatdi. Nega aynan bu romanni tanlaganligi haqida savol berilganda, olim shunday deb javob beradi: “Romanning (“Kecha va Kunduz”) ilk sahifalarini o'qib, menda o'zbek tilining o'ziga xos uslubi sehrlanib qolgan edi. Asarda Navoiy singari Cho'lpon ham o'zbek tilining o'ziga xos imkoniyatlarini to'liq ochib beradi”⁶. Inglizabon bo'lgan bir til mutaxassisining Cho'lpon ijodiga bo'lgan yuksak e'tirofi, uning asarlarini hatto Navoiy asarlariga teng ko'rib baho berishidan ham ma'lumki, Cho'lpon – o'zbek adabiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan yozuvchi, shoir, ta'bir joiz bo'lsa, o'z taxallusiga monand – o'zbek adabiyotining yorug' yulduzlaridandir.

“Kecha va Kunduz” asarini tarjima qilishining sabablarini sanar ekan, Kristofer Fort ham badiiy, ham tarixiy jihatdan bunday yetuk asarni o'qish u uchun juda zavqli ekanini, biroq romanning “Kunduz” qismi yo'qolganligi uni qattiq qayg'uga solganligini aytib o'tadi. Uning fikricha, Cho'lpon asarining “Kunduz” qismi mavjud emasligi haqidagi dalillar uni qoniqtirmagan. Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, olimlar tomonidan aytilishicha, dilogiyaning ikkinchi qismi yo umuman mavjud bo'lmagan, yoki NKVD tintuvlari paytida qo'lyozma holida topilib, yo'q qilingan. “Tarjimaga kirishganimdan beri yangi dalillarni izlayapman”, – deydi yosh tarjimon o'zining Cho'lpon haqida yozgan maqolalarining birida.

Shulardan xulosa qilgan holda, mazkur tadqiqot ishida biz ham “Kecha va Kunduz” romanining inglizcha tarjimasida badiiy-uslubiy bo'yoqdorlikni saqlash masalalarini tadqiq etib, qiyosiy tahlil metodidan foydalangan holda ba'zi o'rinlarda o'z yondashuvimizni ham bayon etishni maqsad qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Averintsev S.S. Philology. // M.: Russian language. Encyclopedia, 1979.
2. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel “night and day”. Международный журнал искусство слова, 4(1-2).

⁶ <https://fledu.uz/language/uz/amerikalik-olim-kecha-va-kunduz-romanini-ingliz-tiliga-tarjima-qildi/>

1. 3.Alekseytseva T.A. Explication as a way to overcome interlingual and intercultural asymmetries in translation. - abstract, dissertation... candidate of philol.sciences, 02/10/20, St. Petersburg State University - St. Petersburg, 2009.
3. Alisova T.B., Repina T.A., Tariverdieva M.A. Introduction to Romance Philology. - M.: Higher School, 2007. - 453 p.
4. English-Russian and Russian-English dictionary (short). Ed. O. S. Akhmanova and E. A. M. Wilson. M.: Russian language, 1990. - 1056 p.
5. Anichkov I.E. Idiomatics among linguistic sciences. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. P.101 - 145.
6. Antipov G.A., Donskikh O.A., Markovina I.Yu., Sorokin Yu.A. Text as a cultural phenomenon. - Novosibirsk: Science; Sib. department, 1989. - 196 p.
7. Apresyan Yu.D. About the works of I.E. Anichkov on idiomatics. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. pp. 70 - 87.
8. Arakin V.D. Comparative typology of English and Russian languages. -L.: "Enlightenment", 1979. - 259 p.
9. Arutyunova N.D. Problems of morphology and word formation (based on the Spanish language). - M.: Languages of Slavic cultures, 2007. -288 p.
10. Akbarova, S. K. (2022). PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN. Journal of Positive School Psychology, 6(2).
11. Aripova, K. Y. (2025). THE EXPRESSION OF NATIONAL AND CULTURAL UNITS IN THE ENGLISH TRANSLATION OF CHO'L PON'S NOVEL 'NIGHT AND DAY'(Based on Christopher Fort's Translation) The Use of Lexical-Stylistic Devices, Metaphor. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(2), 190-202.
12. Dilbar, K. (2025, May). Technology-Driven Evaluation Methods in ESL Education. In International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES" (pp. 132-135).
13. Rikhsivayevna, S. B. (2021). Structural And Semantic Aspects of Lexemic Units Expressing National Value in English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 2, 37-39.
14. Ulmasbayeva, Malika Alisherovna (2024). TECHNOLOGIES FOR ENHANCING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES.. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (9), 138-143.